

## BUGUNGI KUN MUAMMOSI - TERRORIZM VA EKSTRIMIZM

Yangiyev Og'abek Yunus o'g'li

*O'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi Akademiyasi kursanti*

**Annotatsiya:** *Terrorizm va ekstrimizmning paydo bo'lishi, rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotiga tasiri, shuningdek bugungi globallashuv davrida barcha davlatlarga rahna solayotgan, islom dinini niqob qilib islom olami nomiga dog' tushirayotgan terroristik va diniy ekstrimistik tashkilotlar, terrorizm va ekstrimizimga qarshi kurash, terrorizm va ekstrimizim bilan bog'liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning javobgarligi haqida.*

**Kalit so'zlar:** *Terrorizm, ekstrimizm, jinoiy javobgarlik, terroristik akt, tasodifiy qurbonlar, terrorizmga qarshi kurashish.*

Bugungi globallashuv davrida barcha davlatlarga turli, usul, ko'rinish, shaklda rahna solayotgan muammolardan biri bu terrorizmdir. Bu muammo bugungi kunda o'zinini go'yalarini, mafkurasini eski usullaridan vos kechib yangi usul, tur va ko'rinishlardan foydalanib tarqatmoqda. Bu usullardan eng ko'p butun dunyo o'rgimchak to'ri (internet)dan foydalanish ko'proq ulushlarni tashkil etmoqda. Biz yoshlar, kattalar terrorizmga qarshi kurashda eng avvalo uning kelib chiqishi, sabblari, rivojlanishini o'rganishimiz zarrur, chunki tarix barchha savolga javob beradi degan gap bor!

«Terrorizm bu — tashkil qilingan, Zo'ravonlik vositasidagi qo'rquvdan foydalangan holda yoki siyosiy o'zgarishlarda o'z maqsadi yolida zo'ravonlik tahdididan foydalanish. Barcha terroristik aktlar zo'ravonlikdan yohud zo'ravonlik orqali tahdid qilishdan iboratdir. Terror tasodifiy qurbon(lar) da yohud terroristik hujum muayyan qaratilgan obyektida ulkan psixologik ta'sir o'tkazishga mo'ljallab tashkil qilingan bo'ladi. Buning mazmuni insonlarni qo'rquv ichida boshqarish va natijada o'zi istagan ishni bemalol qildirishdir. Yanada kengroq olinsa raqib bir etnik guruh, biror-bir diniy jamoa, butun bir davlat, qaysidir bir 9 milliy hukumat yohud siyosiy partiya yoki umumiy sotsial fikrni o'z ichiga oluvchi «mo'ljaldagi auditoriya»ni o'z y o'rig'iga yurgizishdan iborat. Shuningdek terror qayerda ta'lum bir kuch mavjud bo'lmasa uni yaratishga, agar u kuch zaif bo'lsa uni nog'orasiga o'ynatishga urinadi. Zo'ravonliklari natijasi bo'lmish ommaviy axborot vositalari orqali terroristlar eng muhim richag-ta'sir va kuchni qo'lga kiritishga urinadilar, aks holda ular siyosiy o'zgarishlarda ta'sir kuchini yo'qotadi, u xoh mahalliy bo'lsin, xoh u xalqaro miqyosda bo'lsin<sup>22</sup>. Terrorizm tushunchasining paydo bo'lishi miloddan avvaligi asrlarga borib taqaladi. Ushbu tusunchani dastlab Arastu qo'llagan, u bu tushunchadan o'z

---

<sup>22</sup> Qarang: Cooper B. New Political Religions, or An Analysis of Modern Terrorism. University of Missouri Press. Columbia and London. 2004. B. 30-35

teatirlarida vahiva, qo'rquv uyg'otuvchi qismiga aytgan. Terrorizimning vujudga kelishi rivojlanishini shartli ravishda quyidagi davrlarga bo'lib olsak maqsadga muvofiq boladi:

- Qadimgi davri
- O'rta asrlar (Klassik ) davri
- Yangi davri
- Hozirgi davri

**Qadimgi davr-** bu davr miloddan avvaldan X asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda terrorizm quyidagilarda namoyon bo'lgan. Qadimda qabilalar boshqa bir qabilani bosib olib, o'zllarini iloh deb nomlaganlar va ularga qarshilik qilganlarni o'ldirish orqali odamlarda qo'rquv vahima uyg'otganlar. Bu fikirlarni ayrim olimlarimiz to'g'ri deb ilgari sursa, bir tomon olimlarimiz bu terrorizimning ko'rinishi emas balki terrorizim IXX asrdan boshlangan deb o'z fikirlarini olg'a suradilar. Bundan tashqari qadimgi davrda ayrim qabilalarning kohinlari, qabila boshliqlari o'ziga nisbattan hurmatni oshirish uchun qo'l ostidagi odamlarni qo'rqitib boshqargan.

**O'rta asrlar (Klassik) davri-** bu davr XI asrdan XVII asrgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda terrorizm va ekstrimizim quyidagicha namoyon bo'lgan. O'rta asrlarda terrorizm va ekstrimizim turli xil jangovor yurushlar va urushlarda namoyon bo'lgan. Xususan bularga misol sifatida "Salib yurushlari". Bu yursh barcha xristianlarni Iso payg'ambarni qabrini yahudiylardan xalos etish niqobi ostida bo'ladi. Bu yurishda ritserlar, savdogarlar, oddiy dehqonlar, ruhoniylar, tabiblar ishtirok etadi. Asosiy maqsad esa boshqacha bo'ladi yangi yerlarni egallash, xristian dinini tarqatish va boylik ortirish bo'lgan. Ular Iso payg'ambarni qabrini egalalsh bilan cheklanib qolishmadi, Quddusliklarni qirib tashlashdi, xristian dinnini turli yo'lar bilan yoyishdi. Bu orqali ular odamlarda vahima qo'rquv uyg'otishdi.

**Yangi davr-** Bu davr XVIII asrdan XX asr oxirigacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Frantsuzlar Milliy konventsiya 1793-yil sentyabrda "*terror kun tartibidir*" deb e'lon qildi. 1793-1994-yillar davri deb yuritiladi La Terreur (Terror hukmronligi). Maksimilien Robespyer, yetakchi Frantsiya inqilobi 1794-yilda "Terror adolatdan boshqa narsa emas, tezkor, qattiq, egilmas" deb e'lon qildi<sup>23</sup>. Terror hukmronligi Frantsiya hukumati tomonidan o'rnatilgan bo'lsa-da, zamonaviy davrda "terrorizm" odatda nodavlat siyosiy faollar tomonidan odamlarni siyosiy sabablarga ko'ra o'ldirilishini, ko'pincha ochiq bayonot sifatida anglatadi. Ushbu ma'no 1870-yillarda rus radikallaridan kelib chiqqan. Sergey Nechayev, kim asos solgan Xalq repressiyasi (Narodnaya rasprava) 1869-yilda o'zini

---

<sup>23</sup> Qarang: Aleks P. Shmid, Albert J. Jongman va boshq., Siyosiy terrorizm: aktyorlar, mualliflar, tushunchalar, ma'lumotlar bazalari, nazariyalar va adabiyotlar uchun yangi qo'llanma, Nyu-Brunsvik, Nyu-Jersi: Transaction Books, 1988

"terrorchi" deb ta'riflagan<sup>24</sup>. Bu davrda terrorizm va ekstrimizm turli urushlar, qo'paruvchilik urushlari, odamlarni qo'rqitish, tahdid, o'ldirish, mol-mulkni tortib olish, yo'lt'o'sarlik, zo'ravonlik qilish, yakka yoki jamoaviy tarzda jinoiy rejani amalga oshirishda namoyon bo'lgan. Bundan tashqari ushbu davrda turli terroristik va ekstrimistik tashkilotlar kurtak ocha boshlagan va rivojlangan. Bundan tashqari bu davrda terroristlar va ekstrimistlar turli mamlakatlarda terroristik hamda ekstrimistik harakatlarini amalga oshirishdi. Ayrim manbaalarda keltirilishicha diniy ekstremizm va terrorizm kabi hodisalarning ildizlari uzoq tarixga borib taqaladi. "Terrorizm" so'zi birinchi marta 1793–1794-yillarda Fransiya inqilobi davrida iste'molga kiritilgan. O'sha davrda bu so'z ijobiy ma'noda qo'llangan va hukmdorlar tomonidan xalqqa nisbatan zulm oshib ketganda unga qarshi kurash ifodasi sanalgan. Shunday bo'lsada ular xech qachon ijtimoiy barqarorlik va tarqqiyot uchun bugungidek tahdid solmaganini qayd etib o'tish lozim. Zero hozirda diniy ekstremizm va terrorizm global xarakterga ega bo'lib, dunyoning barcha mamlakatlari hamda mintaqalariga birdek xavf solmoqda. **Hozirgi davr**- bu davr XXI asrni qamrab oladi. Shoul ta'kidlaydi: Vaqt o'tishi bilan "terrorizm" ning o'zgaruvchan va qarama-qarshi ma'nosiga qaramay, atamaning o'ziga xos semantik kuchi, uning to'g'ridan-to'g'ri belgisidan tashqari, u o'zi qaratilgan shaxslarni, shu jumladan siyosiy muxoliflarni qoralash, delegitizatsiya qilish, obro'sizlantirish va odamsizlashtirish qobiliyatidir. Bu atama mafkuraviy va siyosiy jihatdan yuklangan; pejorativ; axloqiy, ijtimoiy va qadr-qimmatni baholashni nazarda tutadi; va "silliq va juda shafqatsiz". Terrorizm ta'rifi bo'lmagan taqdirda, zo'ravonlik qilmish vakili uchun kurash bu uning qonuniyligi uchun kurashdir. Kontseptsiya qanchalik chalkash bo'lsa, shunchalik u fursatparvarlik bilan o'zlashtirishga imkon beradi<sup>25</sup>. Bu davrda terrorizm va ekstrimizm quyidagilarda namoyon bo'lgan. Turli g'oyalar va mafkuralar urushi bo'lib turgan bu davrda terroristlar va ekstrimistlar turli mamlakatlarda terroristik hamda ekstrimistik harakatlarini amalga oshirishdi, yangi terroristik va ekstrimistik tashkilotlar paydo bo'la boshladi. Hozirgi vaqtda kuchga asoslangan ekstremizm va terrorizm barqaror rivojlanish va dunyodagi millatlararo totuvlikka tahdid solmoqda. Bular natijasida necha-necha milion odamlar o'ldi, bolalar otasiz, ayollar turmush o'rtog'isiz qoldi.

Terrorizmning bir nechta turlari bor, ularga: diniy terrorizm, iqtisodiy terrorizm, xalqaro terrorizm, siyosiy terrorizm, internetdagi terrorizm, millatchilik terrorizmi, milliy terrorizm va boshqalar. Shu bilan birga ekstrimizmning ham turlari bor, ularga iqtisodiy ekstrimizm, siyosiy ekstrimizm, internetdagi ekstrimizim, xalqaro ekstrimizm va boshqalar.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida 16 diniy konfessiyaga mansub 2 238

<sup>24</sup> Qarang: Crenshaw, 77-bet

<sup>25</sup> Ben Shoul, Xalqaro huquqda terrorizmni aniqlash (Oksford: Oxford University Press, 2006), B-3

diniy tashkilot faoliyat olib bormoqda. Ulardan 2064 tasi islomiy, 157 tasi xristian, 8 tasi yahudiy, 6 tasi bahoiy jamoalari, bittadan Krishnani anglash jamiyati va Budda ibodatxonasidir. Bulardan tashqari konfessiyalararo Bibliya jamiyati ham faoliyat yuritmoqda. Mamlakatimizdagi diniy tashkilotlar qaysi diniy konfessiyaga taaluqli bo'lishidan qat'iy nazar barchasiga teng huquq va keng imkoniyatlar yaratib berilgan.

Bugungi kunda dinga bo'lgan qiziqish, ishonch kuchayib bormoqda. Bugungi kundagi globallashuv esa dinlarning, turli g'oyalarning tarqalishi va denafonning tezda kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Bunga bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borayotgan komunikatsion va infarmatsion texnologiyalar ham o'z tasirini o'tkazmoqda. Ushbu jarayonlardan to'ri maqsadlarda foydalanadiganlar bilan bir qatorda g'arazli maqsadlarda foydalanadiganlar ham bor. Bugungi kunda geosiyosiy maqsadlarga bo'ysindirilgan, inson qalbi va ongi uchun kurashlarning yangidan-yangi usul va vositalarining ko'payib borayotgani, ayniqsa, bu borada din omilidan foydalanishga urinishlarda yaqqol namoyon bo'lmoqda. Qurolli urushdan ko'ra, g'oyaviy urush shaxslarga, jamiyatga kuchli ta'sir etadi.

Shaxslarning ongi va va qalbiga dinni niqob qilib turli yod g'oyalarni singdirish orqali, garazli niyatlarni o'ziga shior qilib olgan shaxslar o'z izdoshlarini ko'paytirishadi va o'z maqsadlari yo'lida birlashtirishadi. Bu esa turli terroristik, ekstrimistik, sparatistik, fundamentalistik guruhlar, tashkilotlarning tuzilishiga olib keladi. Ma'lumotlarga ko'ra, bugun dunyoda 500 dan ortiq turli terrorchilik, ekstrimistik, sparatistik, fundamentalistik tashkiloti faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning 80 foizi islom niqobi ostida faoliyat yuritadi. Ular qatoriga "ISHID (Iroq va Shom islom davlati)", "Jabha an-Nusra", "Ansaru ash-Sham" (Suriya), "al-Qoida", "al-Jihod al-Islomiy", "at-Takfir va-l-Hijra" (Misr), "Abu Sayyaf" (Filippin), "Ozod Achex", "Lashkari jihod" (Indoneziya), "Qurolli islomiy harakat" (Jazoir), "Boko haram" (Nigeriya), "Islom jihodi uyushmasi", "O'zbekiston islomiy harakati" Tolbion (Afg'oniston, Pokiston) kabi tashkilotlarni kiritish mumkin.

O'zbekiston Respublikasida terrororizim va ekstrimizimga qarshi kurashish bo'yicha bir nechta qonun va qonun osti hujjatlari qabul qilingan, ularga 2000-yil 15-dekabr kuni "Terrorizmga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun, 2018- yil 30-iyul kuni "ekstrimizimga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksida terrorizm va ekstrimizim bilan bog'liq jinoiy harakatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. Misol uchun: O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining **244<sup>2</sup>-moddasi**ga kora: "**Diniy ekstremistik, separatistik, fundamentalistik yoki boshqa taqiqlangan tashkilotlar tuzish, ularga rahbarlik qilish, ularda ishtirok etish**"- uchun jinoiy javobgarlik belgilangan. O'zbekiston Respublikasi "Ekstrimizimga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuning 14-moddasiga ko'ra: "Tashkilot, agar uning tarkibiy tuzilmalaridan hech bo'lmasa bittasi (bo'linmasi, filiali va vakolatxonasi) ekstremistik faoliyatni amalga oshirayotgan bo'lsa, **ekstremistik tashkilot deb topiladi**. Tashkilotni ekstremistik tashkilot deb topish to'g'risidagi ariza O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori tomonidan

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga beriladi. Qaysi tashkilotlarga nisbatan sudning ularni ekstremistik tashkilot deb topish va O'zbekiston Respublikasi hududida ularning faoliyatini taqiqlash to'g'risidagi qonuniy kuchga kirgan qarori mavjud bo'lsa, o'sha tashkilotlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va Oliy sudining rasmiy veb-saytlarida e'lon qilinishi lozim." Xalqaro miqyosida ham terrorizm va ekstrimizimga qarshi kurashish sohasida bir qancha normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Terrorizm ekstrimizimga qarshi kurashish tizimida bir qanch ishlar amalga oshirilmoqda, xususan 2021- yil 6-iyulda qabul qilingan "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonun 2022-yil 2-iyul kuni PF-6255-sonli "2021 — 2026-YILLARGA MO'ljALLANGAN EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY STRATEGIYASINI TASDIQLASH TO'G'RSIDA" farmoni qabul qilindi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha "Taraqqiyt strategyes"ning 76-maqsadi terrorizmva ekstrimizimga qarshi kurashishga bag'ishlangan. Bugungi kunda mamlakatimizda dinlarni o'rganishga keng yo'l ochib berilgan. Shu sababli malakatoimizda din ilmidan saboq beruvchi turli o'rta va oliy ta'lim muasasalariga ruxsat berilgan. Chunki g'arazli maqsaddagi shaxslar yod g'oyalar tarqatish orqali insonlar ongini, qalbini egallab olishini oldini olish demakdir. Bugungi kunda goyaviy kurashlarda g'laba qozonish uchun mustahkam bilim , o'tkir zehn sohibi bo'lish lozim. Chunki ilimdan boshqa najot qolmadi! Bugungi kunda terroristik va eksstrimistik tashkilotlarga adashib qo'shilib qolgan shaxslarga ham bir qancha yengilliklar berilmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. BMT Bosh Assambleyaning 2000 yil 8 sentabrdagi 55/2-rezolyutsiyasi bilan ta'sis etilgan BIRLASHGAN MILLATLAR TASHKILOTINING MING YILLIK DEKLARATSIYASI.
3. 1963 yil Samolyot bortida sodir etilgan jinoyatlar va boshqa ba'zi harakatlar to'g'risida Konventsiya
4. 1970 yil Samolyotlarni noqonuniy olib qo'yishga qarshi kurash to'g'risidagi konventsiya
5. 1971 yil Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi konventsiya
6. 1979 yil Yadro materialini jismoniy himoya qilish to'g'risidagi konventsiya
7. 1988 yil Xalqaro fuqaro aviatsiyasiga xizmat ko'rsatadigan aeroportlarda noqonuniy zo'ravonlik harakatlarini to'xtatish to'g'risidagi protokol
8. 1988 yil Dengiz kemalari xavfsizligiga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurash to'g'risidagi konventsiya

9. 1988 yil Kontinental tokchada joylashgan turg'un platformalarning xavfsizligiga qarshi noqonuniy xatti-harakatlarga qarshi kurash protokoli
10. 1991 yil Identifikatsiya maqsadida plastik portlovchi moddalarni markalash to'g'risidagi konventsiya
11. 1997 yil Terroristik bombalarni bostirishga qarshi xalqaro konventsiya.
12. 1999 yil Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konventsiya
13. 2005 yil Yadro terrorizmiga qarshi kurash bo'yicha xalqaro konventsiya [Entsiklopediya site:ewikiuz.top](http://Entsiklopediya.site:ewikiuz.top)
14. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikga tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.:O'zbekiston, 1997
15. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. –T.:Ma'naviyat, 2008.